

## ONG PATOLOGIYASINING PSIXOTIK TIPLARI

O'zbekiston milliy universiteti Jizzax filiali Psixologiya fakulteti o'qituvchisi:

**Otamurodov Rustam**

**talabalari: Jaloliddinova Sevinch**

**Isomiddinova Sarviniso**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada insonlarda uchraydigan ruhiy xastaliklarning yengil ko'rinishlari haqida qisman yoritilgan. Ong va tafakkur patologiyasi va uning belgilari haqida so'z boradi. Kasalliklarning turlari, yengil va og'ir kechishi mumkin bo'lgan holatlar ham yoritib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Obnubilyatsiya, Deliriya, Oneyroid, Amensiya, Depersonilizatsiya, Somnambulizm, Somnolensiya, Sinkope, Sopor, Koma.

Ong – psixik faoliyatning oliy shakli. Psixikani odamga xos bo'lgan oliy darjasi ongni tashkil etadi. Ong psixikaning uni yaxlit bir holga keltiruvchi shakli bo'lib kishining mehnat faoliyatida, boshqalar bilan tili yordamida muloqot qilish jarayonida shakllanishini ijtimoiy tarixiy shart-sharoitlari natijasi hisoblanadi.

Kishining ongi bizni tevarak atrofimizni o'rab turgan olam haqidagi bilimlar majmuasidan tarkib topdi.

Inson ongida ham turli xil buzilishlar, patalogik kasalliklar ham uchrab turadi. Ba'zi insonlar tashqi jihatdan, xatti-harakatlaridan es-hushli inson bo'lib ko'rinsada ong faoliyati buzilgan bo'lishi yoxud sezilmasligi mumkin. Umuman olganda ongning buzilishi psixotik va nopsixotik buzishlarga ajraladi.

Psixotik buzilish tiplariga **obnubilyatsiya, deliriya, oneyroid, amensiya, depersonilizatsiya**, es-hushning kirdi-chiqdi bo'lib qolishi, ambulator **avtomatizmlar** va **somnambulizm** kiradi.

Ongning nopsixotik buzilishlariga **somnolensiya, sinkope, sopor** va **koma** kiradi.

Ongning psixotik buzulishlari: Obnubilyatsiya (nubes -bulut degani)-ongning yengil darajada buzulishi. Ochiq osmonni bulut xira qilgani kabi go'yoki ong ham biroz xiralashadi, voqealikni idrok etish sustlashadi. Bu ong buzulishining dastlabki bosqichidir. Obnubilyatsiya holatida odam baland ovoz yoki tovyshda darrov o'ziga keladi.

Deliriya (lot. – aqldan ozmoq) – asosan ko'rish gallutsinatsiyalari yoki illuziya bilan namoyon bo'ladi. Bu holat qattiq isitmalaganda, zaharlanganda yoki spirtli ichimlik iste'mol qilganda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan patologik holat. Bu holatda

inson ko'ziga xar hil narsalar ko'rindi, inson bu ko'ringan narsalarni qo'li bilan haydashga urinadi, oldiga hech kimni yo'latmaydi. Deliriya holati asosan, ruhiy kasallarda, shizofreniyada ko'p uchrashi va surunkali davom etishi mumkin. Ko'rvuva eshituv gallutsinatsiyalarining m o'l-ko'l bo'lishi deliriy uchun juda xosdir. Gallutsinator tasawurlar, odatda, xatarli bo'ladi va qo'rquv bilan kechadi.

Oneyroid (uyqusimon, tushga o'xshash holat) ong ham gallutsinatsiyalarning ko'p kuzatilishi bilan tavsiflanadi. Bunda bemorlarga ular koinotda murakkab sarguzashtlar qilgandek, harbiy harakatlarda ishtirok etgandek tuyuladi. Ularning kechinmalari fantastik tusda bo'Madi. Deliriylardan farqli o'Maroq, oneyroidlarda bemorlar kamroq qo'zg'aluvchan, ko'pincha bo'shashgan holatda bo'Madilar. Es-hush uncha buzilmagan bo'Mib, ularda kechinmalar kamroq kuzatiladi, delirioz holatlardagi kabi uzuq-yuluq bo'Mmaydi.

Amensiya – o'zini va tevarak-atrofni anglashning to'la izdan chiqishi bilan namoyon bo'ladi. Bunda inson o'zini anglay olmaydi, atrofdagi inlarni tanimay qolishi yoki vaqt va makonni idrok eta olmasligi bilan namoyon bo'luvchi buzilish. Amensiya deliriyaga o'xshab ketsada, undan og'irroq holat hisoblanadi.

Depersonalizatsiya (shaxs parchalanishi) – o'z shaxsini idrok eta olmasligi bilan namoyon bo'luvchi patologik holatdir. Bunda bemorning o'z oyoqlari, qo'llari katta yoki kichikdek, egri-bugridek, yuz-ko'zlari noto'g'ri shakldagidek, ba'zan qo'llari o'ziniki emas, bir-biridan alohida harakat qilayotgandek tuyuladi. Bu holat shizofreniya, organic psixozlar va bosh miya o'ng yarim sharining zararlanishi uchun xos. Chunki bosh miyaning o'ng yarim shari o'z tanasini anglash uchun ham javob beradi.

Somnambulizm (lunatizm) – uyqu paytida kuzatiladigan ong buzilishlari. Asosan o'smirlarda uchraydi. Somnambulizmda qisman yoki chala uyg'oqlikni kuzatishimiz mumkin. Bu patalogiya ko'proq tunda kuzatiladi. Bunda bola uyg'onib tomga chiqib o'tin tashlashi, paxsa ustida, soy ustidagi quvurlardan yiqilmay o'tib ketishi mumkin. [1]. Odamning harakat sistemasi go'yo uyqidan uyg'onadi, es-hushi esa paydo bo'lgandek bo'ladi, aslida ular uyqusida o'rnidan turib yurganini eslab qolmaydilar. Berilgan savollarga va murojaatlarga ular javob qaytarmaydilar yoki uyg'onib ketadilar.

- Somnolensiya (uyqu bosishi) sog'lom odamlarda ham kuzatiladi. Masalan, kechasi bilan kasalxonada navbatda turib, ertasi kuni ham ishlaganda, vaqtida uxlab dam olmagan holatlarda, uzoq yo'lga mashina haydar chiqqanda va hokazo. Somnolensiya — bedorlik va uyqu orasidagi chegaradosh holatdir. Turli xil kasalliklarda somnolent holat ancha vaqt davom etishi (soatlab yoki bir necha kun)

mumkin. Bemor uyquchan bo‘lib qoladi. Uning mudroq ongida haqiqiy idrok etish va tushsimon kechinmalari chalkashib ketadi. Unda goho u yoki bu kechinmalar ustunlik qiladi. Bemor diqqatini biror narsaga qisqa vaqt jalb etsa, atrofidagi narsalarga diqqatini to‘plab qarasa, nimanidir anglashi mumkin, lekin bu narsalar xotirasida turmaydi. Bunday holat, ayniqsa, giyohvndlarda, spirtli ichimliklarni va uyqu dorisini ko‘p iste’mol qilganda kuzatiladi.

Sopor — ongning ancha chuqurroq buzilishi. Soporning uch xil darajasi farq qilinadi: 1) yengil sopor — bunda bemor yengil uyqu holatida bo‘ladi, savollarga javob berishi susayadi, uyqu kelayotganligidan noliydi, sekin va cho‘zib gapiradi; 2) o‘rta darajadagi sopor — bunda uyquchanlik biroz kuchayadi, ko‘z qorachig‘ining yorug‘likka ta’siri pasayadi, o‘z holicha gapirmaydi, oddiy savollarga kechikib bo‘lsa ham javob berishga intiladi, bemor ko‘zini yumib yotaveradi; 3) chuqur sopor — savollarga javob bermaydi yoki ancha kechikib bir xil tarzda javob beradi, ko‘z qorachig‘ining yorug‘likka ta’siri yanada susayadi, ahvoli qattiq uxbab yotgan odamni eslatadi.

Koma — ongning batamom buzilishi bo‘lib, bemor tashqi dunyodan butunlay uzilib qoladi. Bunday paytlarda bemor hech qanday tashqi ta’sirga (og‘riq, harorat) javob bermaydi. Ko‘z qorachig‘ining yorug‘likka javob reaksiyasi yo‘qolgan bo‘ladi, konyunktival va komeal reflekslar, pay reflekslari chaqirilmaydi. Mushaklar tonusi yo‘qoladi. Koma bir necha kundan bir necha oygacha davom etishi

Insonlarda biz bilmagan ong buzilishlari, hali to’liq o’rganilib chiqilmagan ong patologiyalari talaygina. Ularning ba’zilari ko‘z o’ngimizda tashqi jihatdan namoyon bo‘lsa, ba’zilarining bor ekanligini hatto sezmaymiz ham. Ba’zida bunday holatlarni kasallik sifatida qabul qilmaymiz ham. Inson hayoti davomida yashar ekan, turli ehtimol va tasodiflar tufayli psixik faoliyatida buzilishlar bo‘lishi mumkin.

Ijtimoiy muhitda, yon-atrofimizda bundayin kasallik belgilariga ko‘p duch kelamiz. Lekin bu ham kasallik ekanligi hech kimning hayoliga ham kelmaydi. Insonda xavf tug’diradigan kasalliklar juda ko‘p, eng muhimi insonda bunday kasallik qarshi ham jismoniy, ham psixologik jihatdan immunitet kerak. Agar jismoniy jihatdan immunitet bo’layu psixologik jihatdan bo’lmasa oxir oqibat, ham ruhiyatimizni, ham tanamizni kasallikka duchor qilamiz.

## Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. 1. Zarifboy Ibadullayev ”Tibbiyot psixologiyasi”darslik “Zamin Nashr”nashriyoti Toshkent-2019 yil
2. Zarifboy Ibodullayevning ”Asab va ruhiyat” ilmiy-ommabop risola “Zamin Nashr” Toshkent 2019-yil